

**QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNING SHAKLLANISHI VA
TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI*****M.O' Yusupova****Ilmiy rahbar, BuxDU t.f.f.d., (PhD)****S. Teshayeva****BuxDU 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida turizmni shakllantirish, uning bosqichlari, tarixiy rivojlanish jarayonida amalga oshirilgan ishlar, olib borilgan tadqiqotlar o'rganilib, ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Qashqadaryo viloyati qadimdan Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan bo'lib viloyatning boy tarixiy merosi, tabiiy landshaftlari, ziyoratgohlari va arxeologik yodgorliklari bugungi kunda turizmni rivojlantirish uchun muhim ma'lumotlar manbayi hisoblanadi. Shuning uchun maqolada viloyat turizmi rivojlantirish bosqichlari davrlar kesimida o'rganilib uning o'ziga xos xususiyatlari va muammolari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: turizm, ekologik turizm, turizm infratuzilmasi.

Abstract. This article scientifically analyzes the formation and historical stages of tourism development in the Kashkadarya region. Within the framework of the study, the tourism potential of the region, its historical and cultural monuments, geographical features, and the dynamics of development from the Soviet period to the present day are examined. The article identifies the main stages in the development of tourism in the region and analyzes the specific characteristics and challenges of each period.

Keywords: tourism, , ecological tourism, tourism infrastructure.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируются этапы формирования и исторического развития туризма в Кашкадарьинской области. В рамках исследования рассматриваются туристический потенциал региона, его исторические и культурные памятники, географические особенности, а также динамика развития с советского периода до сегодняшнего дня. В статье определены основные этапы развития туризма в области и проанализированы специфические особенности и проблемы каждого периода.

Ключевые слова: туризм, экологический туризм, туристическая инфраструктура.

Kirish



Bugungi kunda turizm zamonaviy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan, ko'zga tashlanib borayotgan tarmoqlaridan biri sifatida dunyo bo'ylab mamlakatlar iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada Qashqadaryo viloyati alohida e'tiborga loyiq shahar bo'lib, o'zining boy tarixiy merosi, noyob arxitektura obidalari va rang-barang tabiiy landshaftlari bilan turizm rivojlanishi uchun juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan shahar hisoblanadi. Bu hududda turizmning dastlabki shakllari miloddan avvalgi davrlardayoq, ayniqsa Buyuk Ipak yo'li faoliyat ko'rsatgan paytdan boshlangan deb hisoblanadi. Qashqadaryo hududida turizm faoliyatining dastlabki kurtaklari antik va o'rta asrlarga borib taqaladi. Ipak yo'li yoqasida joylashgan Naxshab (hozirgi Qarshi) va Kesh (hozirgi Shahrisabz) shaharlarining savdo-diplomatik aloqalar markazi bo'lganligi, bu hududlarga doimiy tashriflarni ta'minlagan.

Shahar markazlaridan hisoblangan Yerqo'rg'on - qadimgi shaharsozlik madaniyatini o'zida aks ettirgan, qalin mudofaa devorlari arxitekturasini va Buyuk Ipak yo'li yoqasida joylashgan yodgorlikdan biri bo'lib bu yodgorlik tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Yerqo'rg'on shahri qazilmalaridan olingan ko'plab buyumlar to'plami Qarshi vohasi hamda poytaxt shahri tarixi va madaniyati bir necha bosqichda rivojlanganligini isbotlashga yetarli asos bo'la oladi.

Shahrisabz shahri esa O'zbekistonning qadimiy va go'zal shaharlaridan biri bo'lib, tarixiy markazi YUNESKONing Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shahrisabzga tashrif buyurgan sayyohlar nafaqat Amir Temur davri obidalarini, balki Hisor tog'lari etaklaridagi so'lim tabiatni ham tomosha qilishgan.

Kesh-qadimiy So'g'd viloyatining eng yirik shaharlaridan bo'lib, uzoq asrlar davomida ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat markazi bo'lib xizmat qilgan. Qadimiy Kesh sayyohlar uchun boy tarixiy merosni, milliy qadriyatlar va hunarmandchilikni namoyon etuvchi maskan hisoblanadi.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Kesh shahri miloddan avvalgi II asrdan beri aholisi zich joylashgan shahar bo'lib, Qang' davlati va keyinchalik Kushon imperiyasi tarkibida muhim siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida faoliyat ko'rsatgan.

O'rta asrlarda — ayniqsa XIV–XV asrlarda, Temuriylar davrida — Shahrisabz keng ko'lamli qurilish ishlari olib borilib, ulug'vor me'moriy ansambllar barpo etildi. Oq-Saroy (1380–1404) va Dorus-Saodat majmuasi ana shu davr mahsuli bo'lib, ular Qashqadaryo viloyatini xalqaro turizm nuqtayi nazaridan o'ziga xos mavqeyga olib chiqadi. Oqsaroyning qurilishi 1380-yilda boshlangan, hamda 1386-yilda o'z



nihoyasiga yetgan. Ammo bezaklash ishlari 1404-yilga qadar cho‘zilgan. Saroy Amir Temurning onasi Takinaxotun xotirasiga bag‘ishlab bunyod etilgan. Saroyni barpo etish davomida Xorazm, Eron va boshqa ko‘plab mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar ishtirok etgan. Jumladan, gumbazli arkni yasash va bezashda tosh kesuvchi usta Muhammad Yusuf Tabriziyning ishtiroki bo‘lgani gumbaz yozuvlarida saqlangan. Inshoot avvaliga 73 metrlik bo‘lishi kerak edi. Uning tom qismida kichik suv hovuzi joylashtirilgan, undan quvurchalar orqali o‘tgan suv sharshara hosil qilgan. Saroy poydevorini bunyod etishda oltin qum ishlatilgan. Bino poydevori ancha chuqur qilib qurilgan.

Rui Gonsales de Klavixoning “Kundaligi”da aytilishicha, XV asr boshlarida Ispaniyadan kelgan elchiga Amir Temur davlati va Usmonli Turk sultonligi haqida aniq ma’lumotlar olib kelish topshirilgan edi. Elchi Rui Gonsales o‘z asarida Kesh (Shahrisabz) haqida ma’lumot bergan.[1]

Sovet hokimiyati yillarida Qashqadaryo viloyatida turizm asosan markazlashtirilgan tizim doirasida rivojlandi. Bu davrda turizm tijorat maqsadidan ko‘ra mafkuraviy va dam olish funksiyasini bajargan. Shahrisabzga dastlab tashrif buyurgan tabiatshunos A.L.Kun (1870), V.N.Litvinov (1895–1910), I.A.Kastanye (1916), suratkash G.E.Krivsov, topograf N.F. Sitnyakovskiy, yozuvchi V.V.Krestovskiy bu shaharda o‘zlari ko‘rgan me’moriy obidalar to‘g‘risida ma’lumotlar bergan.[2]

1960–1970-yillarda Shahrisabz me’moriy majmualari qisman rekonstruktsiya qilindi va davlat tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar ro‘yxatiga kiritildi.

Mustaqillik yillarida esa o‘zining boy tarixiy merosiga ega bu viloyatda turizimni rivojlantirishga qaratilgan qator istiqbolli islohotlar olib borilmoqda. Shuningdek davlatimiz rahbari tomonidan turizm sohasini rivojlantirish borasida farmon, qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizimni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 24-fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari kabi normativ-huquqiy hujjatlar.

2016–2018 yillar davomida esa bu sohada qabul qilingan qonunlarning ijrosini Qashqadaryo viloyati raqamlarida kuzatsak, hududda 1043 ta arxeologik, 208 ta me’moriy, 27 ta diqqatga sazovor joy, 43 ta monumental jami 1321 ta moddiy-madaniy



meros obyektlari sifatida 50 ta joylashtirish vositalari (2646 o‘rin), 100 tadan ortiq milliy va yevropa taomlari tayyorlaydigan restoran hamda milliy uslubdagi choyxonalar, 18 ta turoperatorlik subyektlari faoliyati tashkil etildi. Shu bilan birga, 17 ta turistik sinfga mansub avtotransport vositalari, 43 ta hamroh-tarjimon sayyohlarga xizmat ko‘rsatmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 28 -avgustdagi 708-sonli Farmoyishiga asosan 470 viloyatda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2018 yilning 11 oyida 183 mlrd. so‘mlik 54 ta loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, 810 o‘ringa ega bo‘lgan 11 ta joylashtirish vositalari, 21 ta restoranlar va kafelar, 4 ta turoperatorlik subyektlari tashkil qilindi.

Muhokama va natijalar

Yurtimiz go‘zal va turistik joylarga boy haqiqiy jannatmakon o‘lka. Shunday bo‘lsada barcha viloyatlar jumladan Qashqadaryo viloyati hududida ham barcha ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, turizm rivojlanishi bir qancha muammolarni hal etishni talab etadi.

- Birinchi muammo — infratuzilmaning hali ham to‘liq rivojlanmaganligi: viloyatning tog‘li hududlarida turistik yo‘llar, turar joylar va aloqa tarmoqlari yetarli darajada qurilmagan.

- Ikkinchi muammo — malakali kadrlar tanqisligi: turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha viloyatdagi ta‘lim muassasalari soni cheklangan.

- Uchinchi muammo — mahalliy aholi tomonidan turizm imkoniyatlaridan foydalanish darajasining pastligi va turizm daromadlarining notekis taqsimlanishi.

Xulosa

Qashqadaryo viloyatida turizmning shakllanishi va rivojlanishi murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi: antik davr va o‘rta asrlardagi tabiiy shakllanish; sovet davridagi cheklangan, markazlashtirilgan turizm; mustaqillikdan keyingi qayta tiklanish bosqichi; va hozirgi — tizimli islohotlar davri. YUNESCO maqomiga ega Shahrizabz shahri, noyob tabiiy landshaftlar hamda davlat siyosatidagi ijobiy siljishlar viloyat turizmini kelajakda yanada ulkan cho‘qqilarga ko‘tarish imkoniyatini beradi.

Tarixiy bosqichlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli turizm rivojlanishi uchun faqat tabiiy yoki madaniy resurslar emas, balki yaxlit infratuzilma, malakali kadrlar, samarali marketing va mahalliy aholining faol ishtiroki zarurdir. Ushbu omillarning uyg‘un birikishi Qashqadaryo viloyatini O‘rta Osiyo turizm xaritasida yanada yorqinroq o‘ringa olib chiqishi shubhasizdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:



1. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — Toshkent, 2018.
2. Jo‘rayeva S, Asrorova L. Qashqadaryo vohasi allomalari va ziyoratgohlari tarixi. Toshkent, 2024. B. 143
3. Rahimov I. T. O‘zbekistonda turizm geografiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
4. Karimov I. A. Buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo‘laylik. — Toshkent: Sharq, 2001.
5. Qashqadaryo viloyati hokimligi. Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi, 2022–2026. — Qarshi, 2022.
6. Tursunov A. N. Markaziy Osiyo turizmi: tarixiy va zamonaviy aspektlar. — Toshkent: Fan, 2019.
7. Botirov H. B. O‘zbekiston turizm salohiyati va rivojlanish istiqbollari // Iqtisodiyot va turizm. — 2021. — №3. — B. 45–58.
8. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism in Central Asia: Regional Report. — Madrid: UNWTO, 2023.
9. Hasanov O‘. Q. Shahrisabz tarixiy-me‘moriy yodgorliklarining turizm rivojidadagi o‘rni // O‘zbekiston tarixi. — 2020